

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

*Marjona To'xtayeva Boybo'ri qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Parmonov Sharofiddin Shavkatovich
ChDPU O'zbekiston tarixi kafedrasи o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan O'rta Osiyo xalqini ma'rifatli qilish, aholini savodsizlikdan, qoloqlikdan qutqaruvchi kuch sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati haqida so'z boradi. Shuningdek, taraqqiyat parvar jadidlarning bu faoliyatga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, Jadidchilik harakati, Maorif, Panturkizm, Ma'rifatparvarlar, Usuli jadid, Yangi usul mакtablari.

KIRISH. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabit etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarning toptalishiga olib keldi. Shunday bo'lsa-da, imperiya mustamlakachiligiga qarshi milliy ozodlik kurashlarida aholining katta qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa ziyorilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Shu sababli ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi deb hisoblaganlar[1].

Jadidchilik yoki jadidizm(arabcha: jadid – yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qirim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillaridagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.[2]

Keyinchalik jadidlar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidlar Rossiya imperiyasi bo'lgan xalqlarni eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'llim sohasini isloq qilish, yoshlarga diniy bilim bilan birga dunyoviy fanlarni o'qitish zarur deb bildilar. Ular muslimon xalqlarining maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta'llim, arab, fors, va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlarni o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surdilar[3]. Qirim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni

chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. Ismoil G'aspirali Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, "usuli jadid" nomi bilan tarixga kirgan "usuli savtiyani" boshlab berdi. Bu usul orqali 40 kunda 12 ta o'quvchining savodi chiqarildi[4]. Uning 1888-yilda yozgan "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobida yangi usul mакtablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtihonlar bayon etilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1929) – O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'lboschchisi. XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi maktab asoschisi, milliy teatr tashkilotlaridan biri, adib va shoir edi. U Toshkentda 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlari tuzgan . Uning "Adibi avval" (1907)," Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid" (1911), "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya"(1912), "Yer yuzi "(1916-1917), to'rt qismdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" (Shorasul zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) darsliklari shular jumlasidandir.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1912-1913-yillarda Samarqandda "Samarqand" gazetasi, "Oyna " jurnaliga asos soladi. Behbudiy "Risolai asbobi savod"("Savod chiqarish kitobi",1904), "Risolai jo'g'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish",1905), "Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiyl geografiya ",1903), "Kitob-ul atfol"("Bolalar xati",1904), "Muxtasari tarixi islom"-("Qisqacha Islom tarixi",1904), "Amaliyoti islom"(1905), "Russiyaning Qisqacha geografiysi" (1905) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901-yildan boshlab "Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiy", "Xurriyat", "Turon", "Sadoi Turkiston", "Najot", "Mehnatkashlar tovushi", "Tirik so'z", "Vaqt", "Samarqand", "Oyna" kabi maqolalari taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan[5].

Jadidchilik faoliyatining namoyandalaridan yana biri Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yilda "Shuhrat" gazetasiga asos soldi. O'zi tashkil qilgan yangi usul mакtabi uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", Turkiy Guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratdi. Jadidchilik harakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri Abdurauf Fitratdir(1886-1918).U 1909-yilda Istanbulda nashr etilgan "Munozara" asarida Buxoro amirligi idorasida ma'lum islohot-o'zgarish kiritish g'oyasi va "Usuli jadid " deb nomlangan yangi ma'rifiy tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo'shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarni rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi. Bundan tashqari Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet-ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-

quvvatladilar. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin maxdum kabilar tomonidan "Tarbiyai atfol "("Bolalar tarbiyasi") jamiyati tashkil qilinib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani o'qishga yuborganlar.

XULOSA. Yuqorida sanab o'tilgan bir qator jadidlarimiz mustamlaka bo'lgan O'rta Osiyo xalqini ma'naviyatini uyg'otish, ma'rifatli qilish va savodsizlikdan qutqarish uchun qo'lidan kelgancha harakat qilganlar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar. Turkistonda jadidchilik harakati, yangilanish fikrlarini tashviq etmoq g'oyalari bilan nashr etilgan gazeta va jurnallarda o'z qadrini topdi. Jadidlar 1905-yilga qadar o'z gazetalarini chiqarishga imkon topa olmagandilar. Ular 1906-yildan e'tiboran "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Buxoroi sharif", "Turon", "Samarqand", "Sadoi Turkiston ", Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston ", "Qozoq", "Bolopon" gazetalarini, "Oyna", "Isloh" va "Yurt" jurnallarini nashr etdilar. Bu gazeta va jurnallar Turkistonda jadidchilik matbuotining qisqa bir vaqt ichida tashkil topganini va xalqni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi vosita bo'lganligini aytish joizdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. B.Qosimov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent "Ma'naviyat" 2004
2. S.Ibragimov "Jadidchilik harakati" Scientific Journal Impact Factor Volume1 ISSUE 3 122-123 b.
3. Sh. Sh. Parmonov. Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o`rni.
4. Khayrullayevich, N. A. (2023). Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization in the Field of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 358-364.
5. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.
6. Nazarova Z.X."RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. Bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili. 2023.
7. Murotjon o'g'li X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.